

Xalilova Gulnoza Nurullo qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Magistranti,

Toshkent, O'zbekiston gulnoza888894@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezisdagi ishbilarmonlik turizmi sohasini rivojlantirish, axborot tarqatishning yangi vositalarini joriy etish, biznes madaniyatni oshirish kabi bir qator vazifalar yuzasidan xorijiy va mahalliy tadbirkorlarning fikr va mulohazalari o'rganildi va ular asosida takliflar ishlab chiqildi.

Аннотация: В этом тезисе были изучены мнения зарубежных и местных предпринимателей по ряду задач, таких как развитие сферы делового туризма, внедрение новых средств распространения информации, повышение деловой культуры, и на их основе разработаны предложения.

Annotation: in this thesis, opinions and opinions of foreign and domestic entrepreneurs were studied on a number of tasks such as the development of the field of business tourism, the introduction of new means of dissemination of information, the enhancement of business culture, and proposals were developed on their basis.

Kalit so'zlar: biznes turizm, yuqori daromad, konferensiya, tadbirkorlar fikri, savdo-sotiq, ishbilarmonlik muhiti.

Ключевые слова: бизнес-туризм, высокий доход, конференция, предпринимательское мнение, продажи, деловая среда.

Keywords: business tourism, high income, conference, entrepreneur opinion, trade, business environment.

Biznes tur — bu xalqaro rivojlangan tajriba bilan tanishuv, ekspertlar bilan uchrashuv, ko'rgazmalar, seminarlar, konferensiyalar o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan tur hisoblanadi. Shuningdek ushbu tur doirasida ham tadbirkorlik ishlarini yuritish ham dam olish imkoniyatini qo'lga kiritish mumkindir. Ishbilarmonlik turizmi hozirgi kunda MICE turizmi deb ham atalyapti. Chunki MICE turizmi biznes bilan bog'liq bo'lgan uchrashuvlar, seminarlar, kongresslar va biznes tadbirlarini

qamrab oladi. MICE turizmi mamlakatlar iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, turizmدا biznes turizmining rivojlanishiga turtki bo'ladi. Birinchidan, biznes turizmi ancha qimmat va samaradorligi yuqoridir. Ishbilarmon sayohatchilarning aksariyati yuqori va o'rta darajadagi kompaniyalar rahbarlaridan iborat, shuning uchun qimmatbaxo, yuqori sifatli xizmatlarni talab qilishadi hamda bundan turmahsulot sotuvchi firmalar eng ko'p foyda olishadi.

Hozirgi kunga qadar MICE turizmini rivojlantirish borasida dunyoning bir qator zamonaviy olimlari hamda ishbilarmon kishilari tomonidan bir qator tadqiqot ishlari olib borilgan, uni rivojlantirish borasida turli xildagi konferenssiyalar, seminar, simpoziumlar tashkil etilgan bo'lib, u yerda ular tomonidan yaratilgan asarlar, yozilgan maqolalar, tezislar muhokama qilingan. Ushbu xorijiy ishbilarmon kishilar hamda zamonaviy olimlar jumlasiga J. Christopher, C. Holloway, Claire Humphreys, M. Porter, Phillip Tan, L. Pender, J. Swarbrooke, S. Horner, I. Dmitriy va boshqalarni misol qilib aytishimiz mumkin.

MICE turizmini rivojlantirish borasida iqtisodchi olimlar, marketologlarning fikrlari muhim ahamiyat kasb etadi. UNWTO doimiy vakili Dmitriy Ilinning so'zlariga ko'ra, uchrashuvlar sanoati turizmning eng muhim segmentlaridan biri hisoblanadi. Zero, u iqtisodiyotga juda katta foyda keltiradi — mavsumiylik tushunchasini kamaytiradi, turistik yo'nalishlarning yangilanishiga turtki beradi va umuman, innovatsiyalar va ijodiy yondashuvga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [1].

Biznes turizmi – bu zamonaviy hodisa emas, insonlar qadimdan o'z faoliyatlari bilan bog'liq holda sayohat qilganlar. Birinchi navbatda savdo-sotiq maqsadlarida sayohat amalga oshirilgan. MICE turizmi mamlakatlar iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, turizmدا biznes turizmining rivojlanishiga turtki bo'ladi. Birinchidan, biznes turizmi ancha qimmat va samaradorligi yuqoridir. Bu turizm turidan tushadigan daromad boshqa turizm turlariga qaraganda ancha katta va naflidir. Shuning uchun dunyoning rivojlangan mamlakatlari aynan ushbu turizm turini rivojlantirishga harakat qiladilar. Misol uchun futbol chempionati, qishki olimpiya o'yinlari, karnaval, festivallar qaysi davlatlarda tashkil etilsa, o'sha davlat iqtisodiyotiga katta daromad keladi degani. Chunki u yerga dunyoning barcha

mamlakatlaridan turistlar tashrif buyuradi va bu esa o'z navbatida o'sha mamlakatning iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Biznes madaniyati - bu ish joyidagi qadriyatlar, xatti-harakatlar va maqsadlarning kombinatsiyasi [2]. Madaniyatga xodimlar va ish beruvchilar, shuningdek mijozlar yoki biznes sheriklar ta'sir ko'rsatadi. Kompaniyaning biznes madaniyati turli elementlarni o'z ichiga oladi. Rasmiy siyosatdan tortib hamkasblar o'rtasidagi tasodifiy o'zaro munosabatlarga. Ba'zi kompaniyalar ijodiy xodimlarni jalb qilish uchun qulay muhitni targ'ib qiladi, boshqalari esa o'z maqsadlariga erishish uchun professionallik va tuzilishga muhtoj bo'lishi mumkin.

Biznesda ishbilarmonlik madaniyati muhim ahamiyatga egadir. Kuchli biznes madaniyatining ba'zi afzalliklari quyidagilardan iborat:

- Ishtirok etish
- Hosildorlik
- Xodimlarni ushlab turish
- Ijobiy obro' [3].

MICE turizmi dunyo bo'yicha korporativ tarmoq, kichik va o'rta biznes, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning o'sishi, shuningdek, innovatsiyalarning global internet tarmog'iga joylashtirilishi hisobiga ko'plab muvaffaqiyatlarga erishildi. Jahon miqyosida turizmning jadal sur'atlarda o'sishi MICE turizmning kelajakda yanada rivojlanishiga turtki bo'ladi. Shuningdek, tarmoq tashkilotchiligi bilan tashkil etiladigan global miqyosdagi uchrashuvlar davlatlardagi turizm sohasidagi kompaniyalar va hususiy shaxslarning faolligini oshirish bilan bir qatorda mamlakat aholi jon boshiga hisoblanadigan yalpi mahsulotning o'sishiga olib keladi.

Hozirgi kunda mamlakatimizga kelgan turistlarning soni ortib bormoqda, jumladan, 2021-yilda turistik maqsadlarda kelgan chet el fuqarolari soni 1,8 mln. kishini tashkil etdi. 2022-yilning sentyabrgacha bo'lgan davrda yurtimizga kelgan xorijiy turistlar soni 2021-yilga nisbatan qariyb 3 baravarga ko'payib, 3,1 million nafar kishini tashkil etdi, yil boshidan turizm eksporti hajmi 926 million dollarga etdi, bitta turistning mamlakatimizda sarflagan mablag'i o'rtacha 305 dollarni

tashkil etdi, ichki sayohat qiluvchilar soni ham 2021-yilga nisbatan 3,5 baravarga o'sib, 7,5 million nafar kishini tashkil qildi [4].

MICE turizmining rivojlanishi mamlakatlarda, hukumatlararo va tashkilotlararo munosabatlarni yaxshilash, biznes va hamkorlik bo'yicha shartnomalarni imzolash, o'zaro manfaatli takliflarni almashish, yangi g'oyalarni izlab topish, munozarali va muhokamali vaziyatlarni hal qilishda samarali yechim hisoblanadi. Bunda ayniqsa ish va turizmning o'zaro bog'lanishi ikki hamkor tomonlarga ham ijobiy foyda olib keladi.

Foydalanilgan adaiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston turistik tashkilotlari uchun ilk marta MICE-turizm bo'yicha mahorat darsi o'tkazildi//elektron
2. surs//<https://daryo.uz/2019/08/11/o%25ca%25bbzbekiston-turistik-tashkilotlari-uchun-ilk-marta-mice-turizm-bo%25ca%25bbyicha-mahorat-darsi-o%25ca%25bbtkazildi>
3. Baxromov Firdavs, Berdiboyev Mirkomil "Biznesdagi biznes madaniyati"//
<https://kompy.info/biznesdagi-biznes-madaniyati.html>
4. <https://www.postposmo.com/uz/korporativ-madaniyat-nima/>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi//elektron resurs// <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/services-2>